MATNLARNI LINGVISTIK EKSPERTIZA QILISHDA UMUMIY TADQIQ METODLARINI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kamola MUSULMONOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
E-mail:musulmonova66@gmail.com
Tel: (99)445-09-56

Annotatsiya

Lingvistik ekspertizada metodlarni to‘g‘ri qo‘llash masalaning obyektiv yechimiga xizmat qiladi. Umumiy tadqiqot metodlari barcha fanlarda samarali qo‘llaniladi. Maqolada lingvistik ekspertiza sohasida umumiy tadqiq metodlarini qo‘llash masalasiga e’tibor qaratilgan. Umumiy tadqiq metodlarining turli konfliktli holatlarda samarali yondashuv ekanligi tahlillar vositasida amaluy asoslangan.

Kalit so‘zlar:lingvistik ekspertiza, ekspertiza, ekspert amaliyoti, analiz, sintez, deduksiya, umumiy metod, metod.

Lingvistik ekspertiza – yurisprudensiyada sud-ekspertizalari tarkibida shakllangan, tilshunoslikda yangi ilmiy yo‘nalish sirasiga kiradi. Ilmiy yo‘nalish sifatida baholashimizning o‘ziga xos sabablari ham mavjud. Chunki lingvistik ekspetizalarni ishlab chiqish va o‘tkazish jarayonida lingvistik bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish talab etiladi. Bunda tor ixtisoslikdagi bilimlar emas, keng qamrovdagi bilimlar majmuasi zarur bo‘ladi. Albatta, lingvist-ekspert ekspertiza jarayonida mavjud tadqiqotlar, lug‘at va qo‘llanmalardan foydalanishga ehtiyoj tug‘iladi. Bugungi kunda sud jarayonida yuzaga keluvchi matn bilan bog‘liq ziddiyatli vaziyatlarga adolatli yechim topish, amaliyotga lingvistik bilimlarni joriy qilish va yuridik jihatdan mutanosiblashtirishga ehtiyoj mavjud va bu yildan yilga ortib bormoqda. Savdo belgisi va mualliflik huquqining buzilishi, plagiat, shubhali

logotip va yorliqlar, matn avtorizatsiyasi, haqorat, tuhmat mazmunidagi yozishmalar, davlat tuzumiga qarshi qaratilgan ekstremistik siyosiy xabarlarda so‘zning kontekstual ma’nosi, hatto alohida so‘zlarning yozilish ma’nosi va og‘zaki matnlar, elektron pochta xabarlari, ijtimoiy tarmoqlardagi “tvit”lar, kiberjinoyatlarni fosh etish, o‘z joniga qasd qilish yozuvlari muallifligi, vasiyatnomalar va militsiyaga berilgan tortishuvli ayblovlar, ekstremistik ruhdagi murojaatlarning asl mohiyatini aniqlash, xulosa chiqarishda lingvistik ekspertizaning o‘rni sezilarli darajada o‘sdi.

Lingvist-ekspert hukm chiqarmaydi, u hukmga asos bo‘luvchi dalillarni tahlil qiladi. Ana shu tahlillar asl jinoyatchi yoki qonunbuzarni aniqlash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Xususan, anonim ko‘rinishdagi xatlarni tahlil qilishda lingvist-ekspert matnning til xususiyatlarini tahlil qilish asnosida muallifning sotsial xoslanishi, kelib chiqish hududi, yoshi, jinsi kabi ma’lumotlarni aniqlashtirib beradi. Bir yoki bir necha bahsli matnlar mavjud bo‘lganda, mualliflik atributini aniqlash murakkablashadi. Lingvistik ekspertizada matnning butun mohiyati to‘laligicha lingvistik belgilarga ko‘ra tekshiriladi, ya’ni fonetik, leksik, grammatik, stilistik, orfografik, pragmatik, sotsiopragmatik, dialektologik, punktuatsion xususiyatlari ekspertizaning yo‘nalishini belgilaydi. Ushbu lingvistik xususiyatlarni birlashtirgan holda har qanday matnda muallifning o‘ziga xosligi atributga asoslangan. Bahsli matnlar vasiyatnomalar, tahdid xatlari, o‘z joniga qasd qilish to‘g‘risidagi yozuvlar bo‘lishi mumkin va hokazo, ammo so‘nggi o‘n yil ichida tahlil obyektlari soni o‘sdi. Elektron pochta xabarlari, matnli xabarlar va so‘nggi tvitlar, Facebook va WhatsApp xabarlari, Instagram singari ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar almashinuvi soni oshdi. Ushbu tendensiya lingvist-ekspert vazifasini murakkablashtirdi, chunki matn qanchalik qisqa bo‘lsa, unda xususiy atributlar shuncha kam bo‘ladi. Yoki kishi sha’ni va qadr-qimmatiga tahdid qiluvchi xat, murojaatlarni tahlil qilishda, shuningdek, turli kriminalistik vaziyatlarda gumonlanuvchining nutqini tekshirishda lingvist-ekspert xulosasi sudning yakuniy qarori bo‘la olmaydi. Bu lingvist-ekspert vakolatidan chetda turadigan jarayon. Lingvist-ekspert mavjud dalil asosida ish tutadi va uni ekspertiza qiladi. Ekspertiza xulosalari esa sud qarorining adolatli,

ishonchli bo‘lishiga yordam beradi. U haqoratning darajasi, ta’sir doirasi, sabab va oqibatlarini tekshirib, yakuniy xulosa beradi. Xulosa hukm xarakterida emas, ekspert mavjud dalillar asosida yashirin jihatlarni yaqqol ochib ko‘rsatadi. Albatta, ekspertning zimmasidagi vazifa ham o‘ta mas’uliyatli va tajriba talab etadigan jarayon. Ekspert lingvistik ekspertizani amalga oshirish davomida turli manbalar, usul va vositalarga tayanadi. Zero, lingvistik ekspertiza natijasi bevosita sud hukmi yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ekspertiza o‘tkazish uchun turli tipdagi ma’lumot va axborotlar bazasi zarur. Biz yuqorida lingvistik ekspertizaning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatgan edik:

1) qo‘lyozma matnlar lingvistik ekspertizasi;
2) bosma matnlar bo‘yicha (shaxsiy yozishmalar, e-mail xabarlari, mikro-blok(kommentariy, tvit) SMS-xabarnomalar shular jumlasidan) lingvistik ekspertiza;
3) matn avtorizatsiyasi bilan bog‘liq holatlar lingvistik ekspertizasi;
4) ekstremistik materiallar lingvistik ekspertizasi;
5) reklama matnlari lingvistik ekspertizasi;
6) tovar belgilari lingvistik ekspertizasi;
7) gazeta matnlari lingvistik ekspertizasi.

Albatta, bu ro‘yxatni to‘liq deb ayta olmaymiz. Lingvistik ekspertiza sud-ekspertlik faoliyatida matn bilan bog‘liq ziddiyatli holatlarning ko‘payishi va keskinlashuvi asnosida yuzaga kelgan yangi soha ekan, uning obyekti bo‘lib xizmat qiluvchi tarmoqlar ham kengayishi shubhasiz. Xususan, keyingi paytlarda yirik firmalar, tashkilotlar logotiplari bo‘yicha ham lingvistik ekspertiza o‘tkazish mumkin.

Lingvistik ekspertiza jarayonida umumiy ilmiy-tadqiqot metodlari sirasiga kiruvchi deduktiv va induktiv metodlardan foydalanish mumkin. Quyida umumiy tahlil metodlariga batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

Deduktiv metodga ko‘ra, umumiy gipotezalar asosida yaxlit xulosa chiqarish mumkin. Lingvistik ekspertiza jarayonida bu qanday ahamiyat kasb etadi? Bunda

tahlilga tortilgan materiallar ustida olib boriladigan tajribalarga emas, balki mantiqiy xulosa chiqarishga e’tibor qaratiladi. Sababi, ayrim logotiplar o‘zida yashirin belgilarni, axborotni tashish vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. Nesterov A.V. Ekspertiza v obsgey teorii ekspertizi // Teoriya I praktika sudebnoy ekspertizai 2013. N 2(30) C.162-168
2. https://lex.uz/acts/-1633102
3. https://lex.uz/uz/docs/-6052631
4. Амири Л.П. К вопросу о лингвистической экспертизе текстов в рекламной коммуникации // В мире научных открытий. 2011. № 4-1. С. 611-618.
5. Кара-Мурза Е.С. Лингвистическая экспертиза рекламных текстов // Язык средств массовой информации / под ред. М.Н. Володиной. М.: Академический Проект; Альма Матер, 2008. С. 624-633